

# **XORIJIY INVESTITSIIYALAR IQTISODIY O‘SISHNING MUHIM MANBAIDIR**

**Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti**

**Buxgalteriya hisobi va audit yo‘nalishi, 3-bosqich talabasi**

**Abdurasulov Xumoyun**

Annotatsiya: maqolada xorijiy investitsiyalar iqtisodiy o‘shning muhim manbai bo‘lib, undan investitsiya sub’ektlari va ob’ektlari birdek manfaatdor hisoblanishi aks ettirilgan.

Kalit so‘zlar: xorijiy investitsiyalar, iqtisodiy o‘sh, kapital, qiymatbaho qog‘ozlar, investitsiyaviy jozibadorlik, Investitsiya muhiti.

## **ИНОСТРАННЫЕ ИНВЕСТИЦИИ-ВАЖНЫЙ ИСТОЧНИК ЭКОНОМИЧЕСКОГО РОСТА**

**Ташкентский государственный экономический университет Курс  
бухгалтерского учета и аудита, студент 3-го курса Абдурасулов Хумаюн**

Аннотация: в статье отражено, что иностранные инвестиции являются важным источником экономического роста, а субъекты и объекты инвестиций в равной степени заинтересованы в них.

Ключевые слова: иностранные инвестиции, экономический рост, капитал, ценные бумаги, инвестиционная привлекательность, инвестиционная среда.

## **FOREIGN INVESTMENT IS AN IMPORTANT SOURCE OF ECONOMIC GROWTH**

**Tashkent State University of Economics Accounting and audit direction,  
student of Stage 3 Abdurasulov Khumayun**

Abstract: The article reflects that foreign investment is an important source of economic growth, and that subjects and objects of investment are equally interested in them.

Key words: foreign investment, economic growth, capital, securities, investment attractiveness, investment environment.

Investitsiyalar barcha xalqaro operatsiyalarni amalga oshirishda kichik korxonalar va mikrofirmalar uchun muhim ahamiyatga ega. Xorijiy investitsiyalarga asosan, moliyaviy muammolarni yechish uchun murojaat qilinadi. Xorijiy korporatsiyalarning moliyaviy bo‘limlari mablag‘lardan qisqa muddatli investitsiyalar qatorida, yuqori foyda olish maqsadida foydalanish moddiy manfaatdorlikni belgilashga olib keladi. Bunday investitsiyalar, ko‘pincha, xususiy tadbirkorlar kapitaliga asoslangan, ba’zida esa, o‘z qimmatbaho qog‘ozlarini chiqaradi va xorijiy qimmatbaho qog‘ozlarini sotib oladi.

O‘zbekiston xorijiy investorlar bilan tengma-teng iqtisodiy aloqalar olib borish asosida sherikchilik munosabatlarini olib boradi. Har qanday investitsiyalarning mamlakatimizga kirib kelishiga yo‘l qo‘yilmaydi. Agar kirib kelayotgan investitsiyalar mamlakatimiz iqtisodiyotiga uning rivojlanishiga keng imkoniyatlar yaratsa, bunday xorijiy investitsiyalar yurtimizga birinchilar qatorida kirib keladi. Jahon tajribasi shuni ko‘rsatmoqdaki, qulay investitsion iqlimni shakllantirmasdan va xorijiy investitsiyalarni milliy iqtisodiyotga faol jalb etmasdan turib, bozor iqtisodiyotiga o‘tayotgan mamlakatlar jahon iqtisodiy hamjamiyatiga muvaffaqiyatli integratsiyalasha olmaydi.

O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasida innovatsiyalarni jadal rivojlantirishga muhim ahamiyat berilib, o‘rta muddatli istiqbolda fan sohasidagi davlat siyosatining maqsadli vazifalari va ustuvor yo‘nalishlaridan biri sifatida “ilmiy-tadqiqot va innovatsiya faoliyatini rag‘batlantirish, ilmiy va innovatsiya yutuqlarini amaliyotga joriy etishning samarali mexanizmlarini yaratish, oliy o‘quv yurtlari va ilmiy-tadqiqot institutlari huzurida ixtisoslashtirilgan ilmiy-eksperimental laboratoriyalar, yuqori texnologiya markazlari va texnoparklarni tashkil etish” belgilandi. Bu esa, ilmiy-tadqiqot va tajriba-konstruktorlik ishlanmalarini

moliyalashtirish, innovatsion faoliyatni iqtisodiy va moliyaviy rag‘batlantirish masalalariga alohida e’tibor qaratish zarurligini ko‘rsatadi.

Shu nuqtai nazardan, Yevropa tiklanish va taraqqiyot bankining ko‘magi bilan tuzilgan, Respublikada faoliyat yuritayotgan investorlar bilan bevosita muloqotni ta’minlaydigan O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Xorijiy investorlar kengashining rolini ta’kidlash muhim ahamiyatga ega.

Xususiy investitsiyalarni faollashtirish uchun tadbirkorlik faoliyatini erkinlashtirish talab etiladi. Biznes bilan doimiy muloqot, muayyan sektorlarning rivojlanishiga to‘sqinlik qiladigan to‘siqlarni aniqlash va yengib o‘tish bo‘yicha astoydil ish olib borish kerak. Shu munosabat bilan quyidagi yo‘nalishlar bo‘yicha faol ish olib borilmoqda.

Birinchi, iqtisodiy o‘shishning bir maromdagi yuqori va barqaror sur‘atlarini saqlab qolish uchun mamlakat iqtisodiyotining barqaror va raqobatbardosh, bank tizimi aktivlarining katta qismi xususiy investorlar qo‘lida bo‘lgan modelini shakllantirish zarur.

Ikkinchi, investitsiyaviy jozibadorlikni oshirish va barqaror iqtisodiy o‘shishning asosiy omillaridan biri bo‘lgan infratuzilmaga yo‘naltirilgan investitsiyalarining jadal o‘shishini ta’minlash maqsadida davlat-xususiy sheriklik va loyihalarni moliyalashtirish vositalarini rivojlantirish orqali investitsiyaviy faoliyatni rag‘batlantirish ham faol tarzda olib borilmoqda.

Uchinchi, raqamlashtirish va davlat xizmatlarini masofaviy taqdim etish orqali investitsiya loyihalarini amalga oshirishda byurokratik to‘siqlar va cheklovlarni to‘liq bartaraf etish uchun investorlar va davlat o‘rtasidagi munosabatlar optimallashtirilmoqda. Shaffoflikni maksimal darajada ta’minlash va korrupsiyaning oldini olish uchun xorijiy investorlarning murojaatlari va so‘rovlari bilan ishlashni tashkil etish sifati yaxshilanmoqda.

To‘rtinchi, ish kuchi va kapitalning iqtisodiyotning qonuniy sektorlaridan yashirin iqtisodiyotga oqib ketishiga olib keladigan tranzaksiya xarajatlarining kamayishi kuzatilmoqda.

Beshinchidan, kelgusida texnologik yutuqlarga erishish nuqtasiga aylanishi va keyingi 20-30 yil davomida mamlakat ishlab chiqarish quvvatlarini rivojlanishi uchun zamin yaratishi mumkin bo'lgan O'zbekistonning eng istiqbolli sohalariga yo'naltirilgan investitsiya siyosati strategiyasi ishlab chiqilmoqda

Yurtboshimiz Shavkat Mirziyoyev tomonidan qabul qilingan "2022-2026-yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi Farmonida olib borilayotgan islohotlar samarasini yanada oshirish, davlat va jamiyatning har tomonlama va jadal rivojlanishi uchun shart sharoitlar yaratish, mamlakatimizda adolatli ijtimoiy siyosat yuritish, ta'lim sifatini oshirish, mamlakatimizda investitsiya muhitini yanada yaxshilash va uning jozibadorligini oshirish kabi bir qator vazifalar belgilab qo'yilgan. Ushbu Taraqqiyot strategiyasida milliy iqtisodiyotni jadal rivojlantirish va yuqori o'sish sur'atlarini ta'minlashning asosiy maqsadlaridan biri bu –mamlakatda investitsiya muhitini yanada yaxshilash va uning jozibadorligini oshirishdan iborat.

Mamlakatimizda xorijiy investitsiyalarni jalb qilish uchun qulay sharoitlar yaratilgan bo'lib, ular quyidagilar:

- siyosiy va iqtisodiy barqarorlik;
- investitsiya faoliyatini qo'llab-quvvatlovchi me'yoriy-huquqiy asos;
- rivojlangan mamlakatlarga qaraganda arzon ishchi kuchi;
- qulay investitsiyaviy muhit;
- boy mineral xom ashyo bazasi;
- qulay geografik joylashuv;
- arzon iqtisodiy resurslar;
- bozorning to'yinmaganligi;
- yashash uchun yaratilgan qulayliklar

**Xorijiy investitsiyalar** — chet el investorlari tomonidan yuqori darajada daromad olish, samaraga erishish maqsadida mutloq boshqa davlat iqtisodiyotining, tadbirkorlik va boshqa faoliyatlariga safarbar etadigan barcha

**mulkiy, moliyaviy, intellektual boyliklaridir.** Chet el investitsiyalari ichki investitsiyalardan farqli holda tashqi moliyalashtirish manbaiga kiradi. Ular milliy iqtisodiyotga chetdan, ularning kelishini rag‘batlantirgan holda jalb qilinadi. Lekin chet el kapitalini jalb qilishning hamma shakllari ha moliyalashtirishning tashqi manbai bulmasligi mumkin. Bu birinchi navbatda foiz to'lovlari bilan qaytarishni talab etadigan kreditlar va qarzlarga taaluqli. Chunki, chet el kreditlari va xalqaro moliya institutlari qarzlari ma’lum vaqt o‘tgach asosiy qarz bilan birga belgilangan foizlarining qaytarilishini talab etadi. Chetdan jalb etiladigan xorijiy investitsiyalar bilan chet eldan kiritiladigan kreditlarning o‘ziga xos farqlari mavjuddir. Bu borada xorijiy investitsiyalar risklar doirasi bilan chet el kreditlari risklari kengligi farqlanadi.

Shuningdek, tadbirkorlarni va investitsiya loyihalari tashabbuskorlarini amaliy qo‘llab-quvvatlashga katta e’tibor qaratilmoqda. Ushbu yo‘nalishdagi eng yorqin misol - bu 2024 yilda tuzilgan eksport va investitsiyalarni rivojlantirish masalalari bo‘yicha Hukumat komissiyasining faoliyati bo‘lib, uning vazifalariga tadbirkorlar va eksportchilar bilan yaqin hamkorlik qilish, turli hil vaziyatlar tufayli yuzaga kelgan cheklovlar bilan bog‘liq muammolarni taxlil qilish, shuningdek, har bir tadbirkorlik subyekting muammosini hal qilishda individual yondashuv asosida tezkor va samarali yechimlarni ishlab chiqish va amalga oshirish kiradi.

Xulosa qilib aytganda, xorijiy investitsiyalar iqtisodiy o‘shishning muhim manbai bo‘lib, undan investitsiya sub’ektlari va ob’ektlari birdek manfaatdor hisoblanadi. Har qanday investor uchun mablag‘larni investitsiya qilishning asosiy maqsad -foydani maksimal darajada oshirish bo‘lganligi sababli, xorijiy investorlar ma’lum bir mamlakatga sarmoya kiritish to‘g‘risida qaror qabul qilishda uning investitsion salohiyatini hisobga oladilar, investitsion jozibadorligini baholaydilar va investitsiya muhitini o‘rganadilar.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR**

1. "2022-2026-yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida" gi farmoni

2. Qo'ziyeva N.R. Xorijiy investitsiya ishtirokidagi korxonalar faoliyatini rag'batlantirishning moliya-kredit mexanizmini takomillashtirish yo'nalishlari. –T.: BMA, 2008, 11 bet.

3. Fozilchayev Sh.Q., Xidirov N.G'. Investitsiya va lizing asoslari. O'quv qo'llanma. –T.: Moliya, 2017 yil, 22 bet